

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 168 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 068 tani tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-iyun oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 16 628,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyun oyilariga nisbatan 115,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 613,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 144,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 12 274,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 740,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 126,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 153 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 122 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 302,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 711,93 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,9 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Andijon (1,5 b.) shaharida va Oltinko'l (4 061,5 b.), Shaxrixon (202,8 b.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 340 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 338 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 8 774,7 mlrd so'mga yetdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 74,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A. Abdulxapizov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
--	--	--	---